

ONA TILINI O'QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR**Vakilova Muslimabonu****Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,****Boshlang'ich ta'lim fakulteti 201-guruh talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14272470>**

Anotatsiya: Ona tili fanini boshlang'ich sinflar uchun integratsion yondashuv asosida oson va qiziqarli holatda o'tishni o'rganish va tahlil qilish.

Kalit so'zlar: Integratsiya, dars, bilim, o'qituvchi, o'quvchilar, ona tili, metodlar.

Аннотация: Изучение и анализ прохождения предмета по родному языку для начальных классов простым и интересным способом на основе комплексного подхода.

Ключевые слова: Интеграция, урок, знания, учитель, учащиеся, родной язык, методы.

“Integratsiya” so'zi lotincha “integration” so'zidan olingan bo'lib, “bo'laklarni bir qismga bog'lash” ma'nosini anglatadi. Bunday dars metodi fanlararo aloqani bog'lash, qo'llash maqsadida qo'llanilib, talabalarining umumiy bilimdonlik darajasi aniqlanadi, rivojlantiriladi, hayot bilan bog'lanadi[1].

Avvalo, integratsiyalashgan yondashuv asosida barcha fan miqyosida qanchalar ahamiyatli ekanligiga bir nazar solsak. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga ona tili fanini integratsion yondashuv asosida dars jarayonini olib borish o'quvchilarning bitta fandan zerikmagan holda berilgan mavzuni mustahkam o'rganishga sabab bo'ladi.

Hozirda bu yangi ta'lim uslubi yosh avlodning maktab darslarida faol bo'lish va mavzularni to'liq o'zlashtirishi uchun zamin yaratadi. Masalan, integratsion yondashuv asosida dars jarayonini olib borishda boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishni misol qilib olinsa, bu fanni o'rgatishda barcha fanlardan o'rinli foydalanish mumkin. Sinfda ona tili fanidan “Ot-so'z turkumi” mavzusi o'tildi. O'quvchilarga dars jarayoni boshlangandan so'ng, matematika fanidan masala va misollar sharti va ularda berilgan asosiy predmetlardan foydalanish mumkin.

Namuna: Quyida mavzu o'tilgandan so'ng, matematika fanidan shu mavzuni mustahkamlab olishda integratsion yondashuvdan foydalanadigan bo'lsak: “Anvarning olmalarining jami 10ta edi. Do'stlariga barcha olmalarni 2tadan taqsimlab berdi. Anvar nechta do'stiga olmalarini bo'lib bergan?” masalasining yechimi topib olingandan so'ng, o'quvchilarga ona tili fanini integratsiyalagan holda “Masalada ot so'z turkumiga oid so'zlarning grammatik xususiyatga ko'ra nechta turi qatnashgan?” deb o'rtada suhbat uyushtirish mumkin. Yana bir qancha fanlarni ham misol qilib keltirsak ham bo'ladi:

Tabiiy fan bilan: O'quvchilarga darslikda yoki fanga oid matnlarni o'qitish va gapirtirish orqali ona tili fani bo'yicha bilimlarini takomillashtirish mumkin.

Tasviriy san'at fani bilan: O'quvchilarga berilgan topshiriq asosida chizishgan rasmlarini tasvirlab berishlari va shu rasmga oid hikoya tuzishlari yoki rasmga bog'liq bo'lgan biror bir bilgan she'rlarini ifodali tarzda yod olib berishlarini so'ragan holda ona tili fanini tasviriy san'at faniga integratsion yondashuv asosida bog'lash mumkin.

Jismoniy tarbiya fani bilan: O'quvchilarni jismoniy tarbiya fanida turli xil xalq o'yinlarini o'rganayotgan va o'ynayotgan paytlarida o'yin davomida aytiladigan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, ularga bu so'zlarning ma'no-mazmunini ham uqtirib ketish mumkin.[3]

Shunga o'xshash ta'lim sohasiga oid yangi usul va talablar kundan kunga ko'payib, takomillashib bormoqda. Shu jumladan, Zamin.uz gazetasida ta'limda zamonaviy talablar haqida qisqacha shular yozilgan:

Dars jarayonlarida eksperimental va innovatsion ta'lim jarayonlarini qo'llash;

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida, pedagoglarning malakasini oshirish va xalqaro tajriba almashinuvi uchun imkoniyatlar haqida so'z olib borilgan[4]

Yana dars davomida ona tili fanini integratsion yondashuv asosida o'rgatishga quyidagi misolni keltirish mumkin:

Sinfdan bir necha o'quvchilarni doskaga chaqiriladi. Barchasiga turli fanlardan mavzular berish mumkin. Birlariga matematikadan masala tahlili, birlariga rasm chizish va biriga she'r yod olishni vazifa qilib berilsa, barchalariga topshiriqlariga mos qilgan holda vazifa yuklatiladi. Buning natijasida, darslarni integratsion yondashuv asosida fanlarni umumiy lashtirilgan holda olib borish mumkin. Bu ta'limiy o'yinni "Qarmoqcha" deb atash mumkin. Negaki, qarmoqning vazifasi ilgagi yordamida biror bir bo'lakni tutib olish bo'lsa, bu ta'limiy o'yin yordamida barcha fandan bir qismlarini bir dars jarayonida olib borish mumkin. Bunday dars shaklidan mavzularni mustahkamlash darslarida keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XULOSA

Ona tili fanini integratsion yondashuv asosida o'tishning ko'pgina afzal tomonlari mavjud. Nafaqat, ona tili, balki, barcha fanda dars jarayonida unumli foydalanish mumkin. Integratsion yondashuvdan foydalanish-o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqish, qabul qilayotgan fikrlarni mantiqan tahlil qilish va aqliy salohiyatini rivojlantirishda katta o'rin egallaydi.

References:

1. An'anaviy ta'lim va noan'anaviy ta'lim (Mualliflar: Gulobod Qudratilloh qizi, Ravshan Ishmuhammedov, Malika Normuhammedova).
2. Musayeva, S. I. (2024). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF INTERACTIVE METHODS INTRODUCING THE CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) APPROACH. World Scientific Research Journal, 32(1), 217-219.
3. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo rivojlantirish.
4. Zamin.uz gazeta (Dilfuza Abdullayeva maqolasi)